



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/4

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

Sadulloeva M. G. Theoretical foundations of the organization of continuous pedagogical practice	264
Safarova S. T. O'rta sinf maktab yoshidagi estetik tarbiyaning xususiyatlari	269
Samadov A. A. O'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy mahoratini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari	272
Sattarov Sh. Y. Autocad grafik dasturining yangi avlodi vositasida detal chizmasini bajarish metodikasi	276
Shovdirov S. A. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларнинг ижодий тасаввурларини ривожлантириш	281
Soatov D. M. Дзюдо машғулоти оралиқ ўқувчиларда жисмоний сифатларни ривожлантириш	286
Султанова Д. Б. Свойства и новые технологии хореографии в художественной гимнастике	291
Chinaliyeva A. B. Булажак бошлангич синф уқитувчиларининг касбий компетенциясини шахсга йуналтирилган таълим асосида ривожлантириш технологияси	297
Turakulov A. E. Xalq amaliy san'ati vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik tafakkurni rivojlantirish metodikasi	302
Ubaydullaeva V. P. Theoretical foundations of competences determining the quality of modern education	307
Umarov A. T. Ўқувчи-ёшларнинг кураш спорт турига қизиқишларини ривожлантириш методлари	314
Urinov U. Educational technology and methodology in teaching special subjects to students	319
Utepbeganov A. K. III Renessans davri jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik ta'limiga akmeologik yondashuv	329
Xasanov X. X. Tasviriy san'atning tur va janrlari	328
Xashimova F. S., Xusanov Z. J. Tarmoqlangan tuzilmalarda issiqlik tarqalishi: metrik grafik asosidagi yondashuv	332
Хожанов Б. К. Юқори синф ўқувчиларини экологик тарғиботчилик фаолиятга тайёрлаш ишларини олиб бориш зарурияти	337
Хўжаев А. А. Олий таълим муассасаларида таълим сифати мониторингини такомиллаштиришнинг педагогик механизмлари	342
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Байбаева М. Х., Мажидова М. Б. Роль классного руководителя в развитии мотивационно-волевой сферы учащегося	348
Комилова М. О. Медицинская анимация в смешанном обучении	353
Tilavov M. X. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning boshqaruv uslublarini o'rganishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	358
Усманова М. Н. Влияние одиночества на эффективность учебной деятельности студентов	363
Qurbonboyev A. N. O'zini o'zi faollashtirish xususiyatining talabalik davrida namoyon bo'lishi	370
Salohiddinova G'. B. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari.	375
Mustafoyeva D. A. Yangi texnologiyalarni tayyorlash va rivojlantirish sohasidagi innovatsiyalar	381
Bozorov A. A. Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamoloti ta'lim sifati	385
Uralova Sh. Sh. Pichoq / Knife	390

YOSHLARNI IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TANQIDIY FIKRLASH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Salohiddinova G'azalxon Bekmirzaevna,
Toshkent shahar tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, talaba yoki o'quvchi shaxsini tanqidiy fikrlash jarayoniga tayyorlash, dastlabki jarayonda ota-onaning, o'qituvchi murabbiyning mas'uliyatli vazifalari, tanqidiy fikrlash jarayonidagi amal qilish kerak bo'lgan qoidalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda bir qancha texnologiyalar qatorida tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari xaqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash, ta'lim sifati, o'zaro hamkorlik, tanqidiy taxlil, mustaqil fikrlash, aqliy faoliyat, anglash, chaqiriq, o'ziga ishonch, ongillik tamoyili, talaba shaxsiga munosabat, o'zaro fikr olishuv.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

*Салохиддинова Газалхон Бекмирзаевна,
Старший преподаватель Ташкентской Медицинской Академии*

Аннотация: В статье идёт речь о преимуществе использование в числе других технологий, технологию критического мышления для повышения социальной активности молодого поколения, а также, воспитание самостоятельных, критически мыслящих людей, подготовка студентов и учащихся к процессу критического мышления, роль и задачи родителей и педагогов в начальной стадии данного процесса, разработана правила и рекомендация для студентов, в котором они должны соблюдать в процессе критического мышления.

Ключевые слова: Социальная активность, критическое мышление, качество образования, взаимодействие, критический анализ, независимое мышление, умственная деятельность, осознание, вызов, самоуверенность, принцип сознания, отношение к личности студента, обмен точки зрения.

THE ADVANTAGES OF USING CRITICAL THINKING TECHNOLOGY IN INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH

*Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna,
Tashkent Medical Academy*

Annotation: This article focuses on educating independent and critical thinking people, preparing students to the process of critical thinking, the responsibilities of parents and teachers in initial process to increase the social activity of youth in society, the rules and recommendations to follow in the process of critical thinking, the advantages of the use of critical thinking technologies to increase the social activity of the youth.

Key words: social activity, critical thinking, quality of education, interaction, critical analysis, independent thinking, mental activity, understanding, call, self-confidence, principal of consciousness, attitude to student personality, mutual feedback.

“Ta’lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” Ushbu soxada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargoxlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda xal qilishimiz kerak.

Sh.M.Mirziyoev

Prezidentimiz Sh. Mirziyoev 2022 yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida yosh avlodning ta'lim- tarbiyasi va kamoloti, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar, ta'lim sifatini oshirishga alohida urg'u berib o'tdilar. Darhaqiqat bugungi kunda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ularni jamiyatning faol a'zosi qilib tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Yilning "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili" deb nomlanishi biz pedagoglarga katta ma'suliyat yuklaydi.

Ijtimoiy hayot, hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda o'zaro munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat maxsuli, muloqot madaniyati mustaqil fikrlash majmuasi tariqasida yuzaga keladi. Shaxs mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalari, xususiyatlar xamda mexanizmlarni anglab yetadi. Darhaqiqat, jamiyatda xilma-xil fikrlash muhitini vujudga keltirishda mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxslarning o'rni beqiyosdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan barkamol insonni shakllantirish, uning natijasida mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli, irodali, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlar tayyorlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va ma'suliyatli vazifadir. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda bir qancha texnologiyalar qatorida tanqidiy fikrlash texnologiyasining ham o'rni muhim. Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayoni. Biroq tanqidiy fikrlash – bilish faoliyatining yuqori darajasi sifatida talabalarda matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutqni egallashga, mazkur matn bo'yicha kursdoshlari bilan birgalikda harakatda bo'lishga qaratilgan pedagogik texnologiya... Tanqidiy fikrlash – o'quv auditoriyasidagi ruhiyatni o'zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya'ni mashg'ulot o'qituvchi va talabalarning ijodxonasiga aylanadi. "

Amerikalik olim J.Dyuining fikricha: "O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo buladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan savol bu xodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi". Darhaqiqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini aniqlash zarurati mavjud. Chunki, tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashning tarkibiy qismidir. Bizningcha esa tanqidiy fikrlash – bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea va hodisa, borliqni ob'ektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Unda taxlit, taqqoslash, izoxlash, yangilik kiritish, muammolarni xal qilishga alohida e'tibor beriladi hamda o'quvchilarda bunyodkor g'oyalarning yovuz g'oyalardan ustidan g'alaba qozonilishiga ishonch paydo qilinadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi aqliy faoliyat ko'nikmalari mavjud:

Esda saqlash – eng muhim fikrlash jarayoni bo'lib, busiz o'quv jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi.

-O'quv jarayonini usiz amalga oshirib bo'lmaydigan «notanqidiy fikrlash» turlaridan yana biri – murakkab g'oyalarni tushunish bilan bog'liq.

-«Tanqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu – ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib fikrlashdir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo'ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham.

Tanqidiy fikrlashning elementlari:

- tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot – tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;
- tanqidiy fikrlash savolning qo‘yilishi va hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
- tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- tanqidiy fikrlash – ijtimoiy fikrlashdir.

Tanqidiy fikrlash ta’limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisa ham emas. Braun (1989) ta’kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o‘quv ko‘nikmalari ta’lim oluvchilarga ob’ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olmaydilar. Rixer ta’biri bo‘yicha o‘rganish va fikrlashning ta’rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta’limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o‘rganish asosida talabalarning axborotlarni o‘zlashtirish, sintezlash va ularni to‘la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2. O‘rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo‘ladi. Bunday strategiya o‘rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O‘rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O‘rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayu yagona to‘g‘ri javob»ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda talabalar o‘rtasida tanqidiy fikrlashni tashkillashtirishdan oldin tanqidiy fikrlashning rivojlantirish muhitini yaratish lozim. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo‘l ham yo‘q. Tanqidiy fikrlash jarayoni talabalardan erkin va mustaqil fikrlashni, darsga oldindan tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Tortinchoq va o‘z fikrini bayon qilishga qiynaladigan yoshlarni tanqidiy fikrlash jarayonida qatnashishi qiyinroq kechadi. Bunday holatlarda o‘qituvchi talabalarni qo‘llab quvvatlashi, kulgiga qolishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Tanqidiy fikrlashning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o‘quv sharoitlari to‘plami mavjud. Buning uchun:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash;
- talabalarni kulgiga qolmaslikka ishonirish kerak;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘zlarida ishonch hissini uyg‘otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish;
- o‘quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e’tibor bilan tinglash;
- o‘z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi darsni oldindan loyihalashtirishi lozim.

Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruhsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashda hurmat doirasida izn so'rash, o'zgalarni fikrini bo'lmaslik lozim.

Talabalarda fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi. Mixail Chikjentmixaliy (1975) o'zining ilmiy asarlarida tanqidiy fikrlashni shunday ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar. Mixail Chikjentmixaliyning fikridan ko'rinadiki, tanqidiy fikrlashdagi faollik talabalarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi.

Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g'oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligini ularda ishonch hosil qilish zarur.

Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'dagina chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalarni g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani

muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr olishish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlash jarayonida talaba yoki o'quvchi faol qatnashishi uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda avvalo talaba yoki o'quvchini tanqidiy fikrlash jarayoniga tayyorlash lozim, bu esa ko'p xollarda yoshlarni dastlabki bolalik davrida muloqot jarayonini qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liq;

- go'daklik davrida ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi do'stona munosabatning mavjudligi, ota-ona o'z farzandini erkin va mustaqil qilib tarbiyalay olishi, ota-onaning o'zi pedagogik bilimiga ega bo'lishligi;

- o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi do'stona munosabatning mavjudligi, dars jarayonlarida o'qituvchi o'quvchining o'z fikrini erkin bayon qilishi uchun barcha imkoniyatlarni yarata olishi;

- har bir o'quvchi yoki talaba tanqidiy fikrlash jarayonida qatnashishdan oldin bu jarayonga oldindan tayoyyorgarlik ko'rishi, bilim va malakalarni egallashi lozim. Zero bilim o'quvchining qurolidir. Bilimi va dunyoqarashi keng shakllangan o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi yanada shakllanadi. Bunday o'quvchilar esa albatta tanqidiy fikrlash jarayonining faol a'zosiga aylanadilar.

- tanqidiy fikrlash jarayonida qatnashuvchi talaba yoki o'quvchi badiiy, ilmiy adabiyotlarni mustaqil taxlil qila olishligi;

- tanqidiy fikrlash jarayonida o'zaro fikr almashish onlarida bir-birini fikrini hurmat qilishi, o'dob-axloq normalariga amal qilishi, shaxsiy fikrga ega bo'lishi, o'z fikrini o'zgalarga uqtira olish lozimligi.

Adabiyotlar ro'uxati:

1. Ш. Мирзиёев 2022 йил 22-декабрь куни Олий Мажлисга қилган мурожаатномаси.

2. Алекс Муур. Таълим бериш ва таълим олиш: педагогика, таълим дастури ва тарбия. -Рутледж. Иккинчи нашр. 2012. 202-бет.

3. О. Мусурманова ва бошқалар. Умумий педагогика - Т: 2020 й. "Фан ва технология" нашриёти. 461 б.

4. Ж. Ҳасанбоев ва бошқалар. Педагогика. -Т.:2011 й. Ношир нашриёти.

5. М. Тохтаходжаева умумий тахрири остида. Педагогика –Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти. 2010 й.

6. Салоҳиддинова Газалхон Бекмирзаевна (2018). Профессиональная социализация будущих педагогов вуза. Вопросы науки и образования, (1 (13)), 124-126

7. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Social pedagogue's responsibilities in cooperation with a family to increase child sociability. Достижения

науки и образования, (19 (41)), 59-61.

8. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Creativity and artistic thinking as important components of professional competencies of future teachers. *Academy*, (5 (32)), 69-70.

9. Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69

10. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI O'RTASIDAGI IJOBIY MUHITNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. *Scientific Impulse*, 1(6), 424-429.

11. Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA HOS JIHATLARI. *Scientific Impulse*, 1(6), 419-423

12. Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 490-496.

13. Комилова М. О. ПОДХОДЫ «РОТАЦИЯ СТАНЦИЙ» В СМЕШАННОМ ОБУЧЕНИИ // *Gospodarka i Innovacje*. – 2022. – Т. 23. – С. 347-350.

14. Комилова М. О. Организация Смешанного Обучения У Студентов-Медиков // *International Journal of Formal Education*. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 27-33.– С. 24-30.

15. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.

16. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.

17. Umarova, S. (2022). Таълимни рақамлаштиришда креатив компетенцияларни ривожлантириш (Doctoral dissertation, Ўзбекистан Ташкент).

18. Bekmirzayevna, S. G. (2018). Creativity and artistic thinking as important components of professional competencies of future teachers. *Academy*, (5 (32)), 69-70.

19. Bekmirzayevna, S. G. (2018). Social pedagogue's responsibilities in cooperation with a family to increase child sociability. *Достижения науки и образования*, (19 (41)), 59-61.